



№ 3 / 2026

ANDIJON DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI

ADPI
Ilmiy xabarnomasi

D'SMIRLIK DAVRIDAGI "KATTALIK HISSI" VA PSIXIK XUSUSIYATLARINING D'ZIGA XOSLIGI

Alisherova Zulfiya Tolibdjanovna

Andijon davlat pedagogika insituti

Annotatsiya.

Ushbu maqolada o'smirlarda "kattalik hissi"ning shakllanishi, emotsional beqarorlik sabablari va intellektual rivojlanish bosqichlari tahlil qilinadi. O'smirlik davrining psixofiziologik o'ziga xosliklari, shaxs shakllanishidagi inqirozli holatlar va ijtimoiy muloqotning ahamiyati yoritilgan. Shuningdek, o'smir shaxsini shakllantirishda muhitning roli izohlanib o'tilgan.

Kalit so'zlar:

o'smirlik davri, psixik rivojlanish, inqiroz, kattalik hissi, emotsional beqarorlik, muloqot, identifikatsiya, o'z-o'zini anglash.

Аннотация.

В данной статье рассматриваются психофизиологические особенности подросткового возраста, кризисные ситуации в формировании личности и значение социальной коммуникации. В исследовании анализируется формирование «чувства взрослости» у подростков, причины эмоциональной нестабильности и этапы интеллектуального развития. Также объясняется роль окружающей среды в формировании личности подростка.

Ключевые слова:

подростковый возраст, психологическое развитие, кризис, чувство взрослости, эмоциональная нестабильность, коммуникация, идентификация, самосознание.

Abstract.

This article analyzes the formation of a "sense of adulthood" in adolescents, the causes of emotional instability, and the stages of intellectual development. The psychophysiological characteristics of adolescence, crisis situations in the formation of personality, and the importance of social communication are highlighted. The role of the environment in the formation of the adolescent personality is also explained.

Keywords:

adolescent age, psychological development, crisis, emotional maturity, emotional instability, communication, identification, self-awareness.

Bugungi kunda jamiyatning barqaror rivoji asosan yosh avlodning ma'naviy barkamolligi, mustaqil fikrlash qobiliyati va ijtimoiy hayotda faol pozitsiyaga ega bo'lishi bilan chambarchas bog'liqdir. Oilaviy tarbiya esa bolaning shaxsiyati shakllanishida asosiy omil hisoblanadi. Shu bilan birga, globallashuv jarayonining kuchayishi, shuningdek, ijtimoiy va iqtisodiy o'zgarishlar oilaviy muhitdagi munosabatlarda o'smirning psixik rivojlanishiga o'z ta'sirini ko'rsatadi. Har tomonlama rivojlangan yetuk shaxslar jamiyat taraqqiyotining poydevori hisoblanadi. Yoshlarni ruhan sog'lom bo'lib rivojlanishi dolzarb masalalardan biridir. Bunga shaxsan prezidentimiz Shavkat Mirziyoyevning e'tibori yaqqol misol bo'la oladi; "Bizni hamisha o'ylantirib keladigan yana bir muhim masala bu yoshlarimizning odob-axloqi, yurish- turishi, bir so'z bilan aytganda, dunyoqarashi bilan bog'liq. Bugun zamon shiddat bilan o'zgaryapti. Bu o'zgarishlarni hammadan ham ko'proq his etadigan kim yoshlar. Mayli, yoshlar o'z davrining talablari bilan uyg'un bo'lsin. Lekin ayni paytda o'zligini ham unutmasin. Biz kimmiz, qanday ulug zotlarning avlodimiz, degan da'vat ularning qalbida doimo aks-sado berib,

o'zligiga sodiq qolishga undab tursin. Bunga nimaning hisobidan erishamiz? Tarbiya, tarbiya va faqat tarbiya hisobidan", deya ta'kidladi [1].

Yetuk shaxsni shakllantirish bolalikdan boshlanadi. Yosh davrlar ishida o'smirlik davri eng murakkab davrdir. Barkamol yoshni tarbiyalashda o'smirlik davri asosiy, muhim davr hisoblanadi. Inson umrining har bir fasli o'ziga xos, ammo hech biri o'smirlik davrichalik ziddiyatli va hayajonli emas. 11-12 yoshdan boshlanib, 15 yoshgacha davom etadigan bu davr shunchaki jismoniy o'sish emas, balki shaxsiyatning qayta tug'ilishidir. Psixologlar bu bosqichni "tufon va tazyiq" davri deb atashgani bejiz emas, chunki aynan shu vaqtda bolaning ichki dunyosida ulkan inqilob yuz beradi. G'oziyev fikricha "O'smirlik psixikasining eng ko'zga ko'ringan jihati - bu "Kattalik hissi"dir [2]. Kechagina ota-onasining har bir gapiga so'zsiz itoat qilgan bola to'satdan o'zining mustaqil fikri, huquqlari va shaxsiy hududi borligini anglab yetadi. U endi buyruqlarni qabul qilmaydi, aksincha, maslahat va teng huquqli muloqotni talab qiladi. Bu intilish ko'pincha kattalar bilan tushunmovchilikka, oilaviy nizolarga sabab bo'ladi. Aslida, bu isyon ortida "Meni tan oling, men ham shaxsman!" degan hayqiriq yotadi. Bu davrning yana bir o'ziga xosligi emotsional beqarorlik. Gormonlar jo'sh urishi natijasida o'smirning kayfiyati bahor havosidek tez o'zgaradi. Bir lahza oldin dunyoni quchoqlashga tayyor bo'lgan o'smir, bir daqiqadan so'ng tushkunlikka tushishi yoki asabiylashishi mumkin. Ularning his-tuyg'ulari nihoyatda nozik va ta'sirchan bo'ladi. Tashqi ko'rinishdagi kichik bir nuqson yoki tengdoshi tomonidan aytilgan hazil ular uchun fojia darajasida qabul qilinishi mumkin. O'smirlikda tengdoshlar bilan muloqot hayotning markaziga ko'chadi. Agar ilgari o'qituvchi yoki ota-ona asosiy avtoritet bo'lgan bo'lsa, endi do'stlar guruhining fikri birinchi o'ringa chiqadi. O'smir o'z guruhida o'z o'rnini topishga, tan olinishga harakat qiladi. Bu jarayonda u ijtimoiy rollarni o'rganadi, o'zining kimligini tushunishga harakat qiladi. "Men kimman?" degan savol bu davrning asosiy falsafiy o'zagidir, bu bolalikning xotirjam qirg'og'idan chiqib, kattalikning ulkan ummoniga suzib borishdir. Shoumarov fikricha, "Bu yo'lda o'smirga kerak bo'lgan eng katta yordam - tanqid emas, balki tushunishdir. Agar biz ularning bu o'tish davridagi psixologik qiyinchiliklarini anglasak, ularga nafaqat jismoniy, balki ma'naviy jihatdan sog'lom shaxs bo'lib shakllanishiga ko'maklashgan bo'lamiz. O'smirlik davri - bu inson hayotidagi shunchaki bir bosqich emas, balki tabiatning ulkan va murakkab tajriba maydonidir.:[3] Bu davrda inson bolalikning xavfsiz sohilidan uzoqlashib, kattalikning notanish va to'liq ummoniga qarab ilk qadamlarini tashlaydi.

O'zbek psixolog olimasi Z.T.Nishonova "Rivojlanish psixologiyasi va pedagogic psixologiya" kitobida keltirishicha, 5-sinf o'quvchilariga sinfdagi o'zi egallagan mavqeiga katta e'tibor berish xususiyati xos.

6-sinfdan boshlab, o'quvchilar o'z tashqi ko'rinishlariga, shuningdek qarama-qarshi jinsdagi bolalar va ular bilan o'zaro munosabatlariga e'tibor bera boshlaydilar.

7-sinf o'quvchilarida esa o'z layoqatlarini rivojlantirishga xos qiziqish yuzaga keladi.

8-sinf o'quvchilari esa mustaqillik, o'ziga xoslik, do'stlik va o'rtoqlik bilan bogliq bo'ladigan shaxsiy xislatlar paydo boladi [4].

Zamonaviy psixologiya va neyrobiologiya bu davrni nafaqat "inqiroz", balki miyaning va ruhning eng yuksak imkoniyatlari ochiladigan palla sifatida talqin etadi. O'smirning xulq-atvoridagi kutilmagan o'zgarishlar zaminida chuqur biologik qayta qurish yotadi. Olimlarning aniqlashicha, o'smir miyasida hissiyotlar markazi (limbik tizim) mantiq va nazorat markazi (prefrontal qobig'i) dan ko'ra tezroq rivojlanadi. Shu sababli, o'smir ko'pincha "avval bajarib, keyin o'ylaydi". Uning asabiyligi yoki tavakkalchilikka moyilligi shunchaki injiqlik emas, balki shakllanayotgan miyaning o'ziga xos xususiyatidir. Bu davrda o'smir o'zini "shaxsiy afsona" qahramoni deb hisoblaydi: u o'zining dardini eng noyob, his-tuyg'ularini esa hech kim tushunmaydigan darajada chuqur deb biladi. Davletshin ochiqdashicha; O'smir yoshidagi bolani birinchi galdagi intiladigan narsani u o'zini endi kichkina bola emas, katta bo'lib qolganligini atrofdagilarga ishontirishdan iborat. Bu yoshda kattalar o'smirlarni bilib bilmay qo'yayotgan kamchilik va xatolarini ko'pchilik oldida uyaltirib, kamsitib, qoralab emas, balki, psixologik yo'l bilan yondashgan holda yordam beish uhi "katta bo'lib qolganlik tuyg'usini so'ndirib emas, balki katta odam qanday bo'lishi va qanday talablarga javob berishi kerakligini anglatishi zarur"[5].

Bugungi kun o'smiri uchun dunyo faqat to'rt devor yoki maktab hovlisi bilan cheklanmaydi. Raqamli olam ularning ikkinchi "Men"i shakllanadigan makonga aylandi. Ijtimoiy tarmoqlardagi "layk"lar yoki virtual muloqotlar o'smir uchun o'zligini tasdiqlashning muhim vositasidir. Biroq, bu holat ularda "tasavvurdagi auditoriya" hissini kuchaytiradi: o'smirga go'yo butun dunyo uning har bir harakatini kuzatayotgandek va har bir xatosini muhokama qilayotgandek tuyulaveradi. Bu esa o'smir psixikasiga qo'shimcha emotsional yuk bo'lib tushadi. O'smirlikning eng go'zal va og'riqli jihati-bu mustaqillik (emansipatsiya) instinktidir. O'smir ota-onasidan uzoqlashish orqali o'zini topishga harakat qiladi. Uning isyonibush dushmanlik emas, balki shaxsiy chegaralarini chizish usulidir. U uchun tengdoshlarining bir og'iz so'zi kattalarning o'nta nasihatidan ustunroq bo'lib qoladi. Chunki aynan tengdoshlar orasida u o'zining ijtimoiy qiyofasini sinab ko'radi, do'stlikning fidoyilik va xiyonat kabi qirralari bilan tanishadi.

Demak, o'smirlik-bu shaxsiyatning poydevori quyiladigan davr. Bu davrda o'smirga kerak bo'lgan narsa cheksiz nazorat emas, balki masofali ishonchdir. U xato qilishga, izlanishga va hattoki asabiylashishga haqli. Zero, bu "psixologik bo'ronlar" ortida ertangi kunning mustaqil, fikrlaydigan va o'z yo'lini topgan shaxsi shakllanmoqda. Bizning vazifamiz esa, ya'ni ularni eshitish va boricha qabul qilishdir.

Insoniyat tarixida o'smirlik davri uzoq vaqt davomida shunchaki "shoshqaloqlik yoshi" deb qaralgan. Biroq, XX asr psixologiya fanidagi ulkan kashfiyotlar bu davrning naqadar fundamental va murakkab ekanini isbotlab berdi. Bugungi kunda biz o'smirlikni o'rganar ekanmiz, beixtiyor buyuk olimlarning bu boradagi ilmiy jasoratlariga tayanamiz. O'smirlik psixologiyasining otasi Stenli Xoll bu davrni "bo'ron va tazyiq" (Storm and Stress) deb atash bilan fanda inqilob qildi. Uning fikricha, o'smirning isyonkorligi va kutilmagan kayfiyat o'zgarishlari-bu shunchaki yomon tarbiya emas, balki biologik qonuniyatdir. Bu g'oya ota-

onalarga farzandlaridagi o'zgarishlarga nafrat bilan emas, balki tabiiy jarayon sifatida qarashni o'rgatdi. Xollning bu xulosasini Anna Freyd yanada chuqurlashtirib, o'smirlikdagi isyonni otanadan emotsional uzilish va shaxsiy mustaqillikka erishishning "sog'lom yo'li" deb ta'rifladi.

Intellektual olamda esa Jan Piaje o'smir miyasini "kashfiyotchi laboratoriyasi"ga o'xshatdi. U o'smirlarning mavhum (abstrakt) fikrlash qobiliyatiga o'tishini isbotlab, ularning nima uchun hamma narsaga tanqidiy qarashini tushuntirib berdi [6]. O'smir endi faqat bor narsa bilan qoniqmaydi, u "agar bunday bo'lsa-chi?" degan gipotetik savollarni o'rta tashlaydi. Bu esa, Erik Erikson ta'biri bilan aytganda, ulkan "identifikatsiya inqirozi"ga yetaklaydi. Eriksonning ta'kidlashicha, o'smirning asosiy vazifasi-o'zligini topish. Agar u bu davrda "Men kimman?" degan savolga javob topa olsa, sog'lom shaxs sifatida shakllanadi, aks holda "rollar chalkashligi" girdobida qolib ketadi. Zamonaviy fan, xususan, Sara-Jeyn Blekmor kabi neyrobiologlarning MRT tadqiqotlari o'smir miyasining hali "tugallanmagan bino" ekanini ko'rsatdi. Miya qobig'ining ijtimoiy muloqot va nazorat uchun mas'ul qismlari 20 yoshdan keyin ham shakllanishi ma'lum bo'ldi. Bu kashfiyot o'smirlarning nima uchun hissiyotlarga tez berilishi va ijtimoiy tan olinishga (layklar, do'stlar e'tirofi) o'ta sezgiriligini biologik jihatdan dalilladi. Shunday qilib, O'smirlik davri shaxs rivojlanishida muhim bosqich bo'lib, bu davrda hissiy barqarorlik, o'zini anglash, empatiya va ijtimoiy munosabatlar muhim ahamiyat kasb etadi. Emotsional intellektning rivojlanishi o'smirlarning ijtimoiy moslashuvi, muloqot madaniyati va shaxslararo munosabatlariga bevosita ta'sir ko'rsatadi [7].

Xulosa qilib aytganda, o'smirlik-bu shunchaki yosh bilan bog'liq o'zgarish emas, balki shaxsiyatning qayta qurilishidir. Lev Vigotskiy aytganidek, bu davrda yuqori psixik funksiyalar-iroda va mantiqiy xotira shakllanadi. Olimlarning bu xulosalari bizga bir haqiqatni uqtiradi: o'smir bilan muloqotda biz nafaqat bola bilan, balki o'zining yangi "Men"ini qidirayotgan bo'lajak shaxs bilan yuzma-yuz turibmiz. Ularning isyoni-bu dunyoni anglashga bo'lgan ilk jiddiy urinishidir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Mirziyoyev Sh. M. Ijtimoiy barqarorlikni ta'minlash, muqaddas dinimizning sofligini asrash – davr talabi mavzusidagi nutqi. -Toshkent, 15-iyun 2017 y.
2. G'oziyev E.G'. "Ontogenez psixologiyasi" – Toshkent, 2010. (O'smirlik davri bosqichlari bo'yicha asosiy darslik).
3. Shoumarov G'.B. "Oila psixologiyasi" – Toshkent, 2010. (O'smir va ota-ona munosabatlari tahlili).
4. Nishonova Z.T. "Yosh davrlari va pedagogik psixologiya" – Toshkent, 2013.
5. Davletshin M.G. "Yosh davrlari va pedagogic psixologiya" Toshkent 2004
6. Piaje J. *Shaxsiyatning shakllanishi va identifikatsiya tushunchalari*. Piaje J. "Izbrannye psixologicheskie trudy" (Mejdunarodnaya pedagogicheskaya akademiya, 1994).
7. Alisherova , Z. (2025). O'smirlarning o'zaro munosabatlaridagi muloqot jarayonida emotsional intellektni o'rni. *Universal Xalqaro Ilmiy Jurnal*, 2(4.2), 544–546.

MUNDARIJA

PEDAGOGIKA

<i>Umarov Azizbek Vaxobovich</i> MEDIA TA'LIMNING PEDAGOGIK TIZIMIDAGI O'RN VA MEDIAKOMPETENTLIKNI SHAKLLANTIRISHDAGI AHAMIYATI	4
<i>Azizova Dilzaxon Mashrabovna, Gofurjanova Nilufarxon Kadirjon qizi</i> TALABALARNING O'QISH SAVODXONLIGIDA INTERPRETATIF TAFAKKURNI SHAKLLANTIRISHNING NAZARIY-METODOLOGIK ASOSLARI	8
<i>Mirzaev Otabek Khusanovich</i> BOLALARNI MAKTABGA TAYYORLASH METODIKASINI MAKTABGACHA TA'LIMDA TUTGAN O'RN	13
<i>Umnov Dmitry Gennadevich</i> DEVELOPMENT OF CHILDREN'S RESILIENCE TO ADVERTISING: PREPARING EDUCATORS TO ADDRESS THE ISSUE OF TARGETED MARKETING PRESSURE ON PRESCHOOLERS	16
<i>Гофуржанова Нилюфар Кадыровна, Халикова Хуршида Нейматовна</i> РАЗВИТИЕ ЧИТАТЕЛЬНОЙ ГРАМОТНОСТИ СТУДЕНТОВ НА ОСНОВЕ ИНТЕРАКТИВНЫХ ТЕХНОЛОГИЙ В СОВРЕМЕННЫХ ОБРАЗОВАТЕЛЬНЫХ УСЛОВИЯХ	28
<i>Qodirbekova Zebaxon Jasurbek qizi</i> BOSHLANG'ICH SINFLARDA MATNLI MASALALAR VOSSITASIDA KONSTRUKTIV TA'LIM MUHITINI YARATISH VA STEAM INTEGRATSİYASINI AMALGA OSHIRISH	32
<i>Turg'untosheva Hamidaxon Rahmatullo qizi</i> AUTIZM SPEKTRLI BUZILISHLARI BO'LGAN BOLALARDA MOTIV VA EMOTSIONAL KO'NIKMALARNI RIVOJLANTIRISH: HARAKATLI O'YINLARNING TA'SIR MEKANIZMLARI	36
<i>Косимова Гуллола Муллажаноэна, Халикова Хуршида Нейматовна</i> УЧЕБНИКИ ПОДДЕРЖИВАЮЩИЕ АКТИВНОЕ ОБУЧЕНИЕ УЧАЩИХСЯ В НАЧАЛЬНОМ ОБРАЗОВАНИИ: МЕТОДИЧЕСКИЕ ПОДХОДЫ К ДИЗАЙНУ	43
<i>Olimova Sarvinaz Mashrabjon qizi</i> DIZARTRIYALI BOLALARDA DISPRAXSIYANING NAMOYON BO'LISH SHAKLLARI	47
<i>Abdullayeva Madina Baxtiyor qizi</i> MONTESSORI METODINING BOSHLANG'ICH TA'LIMGA INTEGRATSİYA QILISHNING ISTIQBOLLARI	51
<i>Abdukadirov Bobirmirza Baxodirovich</i> OLIV TA'LIM TALABALARINING AXBOROT-TANQIIDYI KOMPETENTLIGI: TUSHUNCHANING MAZMUN-MOHİYATI VA TARKIBIY KOMPONENTLARI	54
<i>Bayjonov Furgat Baxramovich</i> TA'LIM JARAYONIDA GENDER YONDASHUVNI TAKOMILLASHTRISH: DILA VA JAMIYAT INTEGRATSİYASI ASOSIDA	59
<i>Ismoilova Nilufarxon</i> KREATIVLIK VA TANQIIDYI FIKRLASH KONTEKSTIDA MANTIQIY FIKRLASHNI SHAKLLANTIRISH	66
<i>Raxmanov Omadjon Mamasidiq o'g'li</i> PEDAGOGIK PLATFORMA TUSHUNCHASINING ILMIY-NAZARIY MOHIYATI VA OLIV TA'LIM TIZIMIDAGI O'RN	70
<i>Bazarboyeva Mahira Shavkatbek qizi</i> INNOVATSİON YONDASHUVLAR DROALI TARBİYACHILARNING KASBIY O'SİSHINI TA'MINLASH	77
<i>Matkarimov Jaxangir Salaydinovich</i> TABIIY FANNI O'QITISH JARAYONIDA ILMIY TADQIQOTCHILIK FAOLIYATIGA TAYYORLASHNING ILMIY-METODIK ASOSLARIGA DOIR	81

IJTIMOIY-GUMANITAR FANLAR

<i>Аскарое Шакирджан Махмудович</i> ПРАВА ЖИВОТНЫХ В МИРЕ И В УЗБЕКИСТАНЕ: ПРАВОВЫЕ, НРАВСТВЕННЫЕ И РЕЛИГИОЗНЫЕ АСПЕКТЫ	86
<i>Курбанова М.Т</i> КРАЕВЕДЧЕСКИЕ ТЕКСТЫ КАК ФАКТОР РАЗВИТИЯ РЕЧЕМЫСЛИТЕЛЬНОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ УЧАЩИХСЯ	96
<i>Abdusamatov Dzodbek Olimjon o'g'li</i> YOSHLAR ONGIDA MILLIY QADRIYATLARNI SHAKLLANTIRISHDA MAHALLANING ZAMONAVIY MEKANIZMLARI	100
<i>Odilov Kamiljon Furgatjon o'g'li</i> XORIJY TILLARNI O'QITISH SOHASIDA MILLIY QADRIYATLARNI SAQLAB BO'LGAN HOLDA ZAMONAVIY TA'LIM USULLARINI AMALIYOTGA TATBIQ ETISH	104
<i>Maksumova F.K</i> MADOMNING TARIXIY-NAZARIY ILM MAKTABI	110
<i>Alisherova Zulfıya Tolıbdjanovna</i> O'SMIRLIK DAVRIDAGI "KATTALIK HISSI" VA PSIXIK XUSUSIYATLARINING O'ZIGA XOSLIGI	114

ANIQ VA TABIIY FANLAR

<i>G'aniyev Abduqahhor Gadoyevich, Eshboboyeva Muxlisa Zavqiy qizi</i> FIZIKADAN LABORATORIYA MASHG'ULOTLARIDA MIND MAPDAN FOYDALANIB TALABALARNING IJDDIY FIKRLASH KO'NIKMALARINI RIVOJLANTIRISH	118
<i>Ergashev Bilaliddin Mirsharibjon ugli, Alijanova Charasay Muradjon qizi</i> EVALUATING THE EFFECTIVENESS OF PHYSICS TEACHING THROUGH A COMPARISON OF TRADITIONAL AND CASE STUDY METHODS	128
<i>L.S. Yunusov, F.Yu. Axmedov, M. Maxsudova, K.M. Turg'unboyeva</i> MUNTAZAM SPORTNING YENGIL ATLETIKA TURI BILAN SHUG'ULLANADIGAN 14-16 YOSHDAGI BOLALARNING MORFOLOGIK VA FIZIOLOGIK KO'RSATKICHLARI TAHLILI	139
<i>Zakirjanov Sarvar, Zaynabiddinov Ibrakhimjon</i> ON A LINEAR PURSUIT DIFFERENTIAL GAME IN R^n	147
<i>Ubaydullayev Solijon Qodirovich, Tursunov Farxodjon Ermakboevich, Qo'ychiyeva Mohlaroy Lutfidin qizi</i> TEKNOLOGIYA FANI DARSLARIDA O'QUVCHILARNI KREATIV FIKRLASHLARINI OSHIRUVCHI TA'LIM METODLARI	154
<i>Ergashev Bilaliddin Mirsharibjon o'g'li, Karimova Masturaxon Turg'unali qizi</i> EVALUATION OF THE EFFECTIVENESS OF PHYSICS TEACHING BASED ON THE FLIPPED CLASSROOM MODEL	159
<i>Ashurova Gulchexra Dadajanovna, Matniyazova Hilola Xudaybergenovna</i> ARACHIS HYPOGAEA L. (YERYONG'OD) O'SIMLIGIDA SUV ALMASHINUVINING FIZIOLOGIK KO'RSATKICHLARIGA MIKROBIOLOGIK O'G'ITLARNING TA'SIRI	172
<i>Nizamova Bashoratxon Begaliyevna, Abduhamidova Unaxon Ilhomjon qizi</i> UMUMTA'LIM MAKTABLARIDA BIOLOGIYANI O'QITISHDA "BOBURNOMA" MA'LUMOTLARINING DIDAKTIK AHAMIYATI	177
<i>Axmedov Shavkatbek Baltabayevich</i> INTEGRATIV YONDASHUVNI - O'QUVCHILARDA O'QUV FANGA DID KOMPETENSİYALARNI RIVOJLANTIRISHNING ASOSIY OMILLARI	183
<i>Ergashev Bilaliddin Mirsharibjon O'g'li, Ergasheva Fatimaxon Sadiqjon qizi</i> "DATTIQ JISMLARNING MEKANIK XOSSALARI" MAVZUSINI O'QITISHNING SAMARADORLIGINI OSHIRISH	188